

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 378.014.15

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK
HAMKORLIKNI LOYIHALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
СОТРУДНИЧЕСТВА ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**THEORETICAL ASPECTS OF DESIGNING PEDAGOGICAL COOPERATION IN PREPARING
FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES**

Xasanov Shoxjaxon G'olibjon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning metodik tizimi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье изучены научно-теоретические основы проектирования педагогического сотрудничества при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности, методическая система проектирования педагогического сотрудничества при подготовке к профессиональной деятельности. Также были проанализированы теоретические аспекты проектирования педагогического сотрудничества при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности.

Abstract

In the article, the scientific-theoretical bases of designing pedagogical cooperation in preparing future teachers for professional activities, the methodical system of designing pedagogical cooperation in preparing for professional activities are studied. Also, theoretical aspects of designing pedagogical cooperation in preparing future teachers for professional activities were analyzed.

Kalit so'zlar: pedagogika, kasbiy, fanlararo hamkorlik, texnologiya, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: педагогика, профессионал, междисциплинарное сотрудничество, технология, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактический, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент.

Key words: pedagogy, professional, interdisciplinary cooperation, technology, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert assessment, pedagogical experiment.

KIRISH

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy o'nikmasini rivojlantishida amaliy bilimlar tizimi muhim rol o'yinaydi. Bu bilimning muhim tomonlardan biri shundan iboratki, unda voqelikni subyektivlik mezoni asosida bo'limlarga bo'lib qaraladi. Tafakkur har bir fikrlash jarayonida sodiq holda ishlashi bilan birga, u lokal fikrlash va shu asosda maqsadni amalga oshirish uchun eng qisqa yo'lni tanlashga, ortiqcha narsa va fikrlarni tashlab, zarur fikrlar ustidafaoliyat yuritishga undaydi, – deb uqtiradi. Bu jarayon, o'z navbatida, qaralayotgan modellarning orasida muqobillarini qidirishga, bir modelni boshqa model bilan taqqoslash va taqqoslanadigan komponentlarning nafaqat o'ziga, balki dizayniga ham ahamiyat berishga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagoglarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirish, o'qitish jarayonini loyihalashtirish va ta'llim jarayoniga joriy etish masalalari Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, Leyle. M.Spencer, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina,

PEDAGOGIKA

L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, S.V.Vasekin, O.B.Yepisheva, G.A.Monaxov, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari A.Abduoqodirov, U.Begimqulov, N.I.Tayloqov, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari R.X.Djurayev, Z.K.Ismailova, R.G.Ilsyanov, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, M.B.Urazovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga tatbiq qilishning amaliy jihatlari, o'quv jarayoni loyihamalarni yaratish masalalari B.Ziyomuhhammadov, L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, M.Tojiyev, H.Qarshiboyev, A.Alimov, G.Izetayeva kabi olimlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatdagi fazilatlarining mazmunini quyidagicha tasniflash mumkin:

Pedagogik faoliyat qirralari:

1. Bilimdonlik:

- o'qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik san'atiga (o'quv materialini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;

– bilimlarni gumanitarlashtira olishi;

– o'qitish vositalarini egallanganligi;

– o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tahlil qila olishi va ularni baholay olishi;

– bilimlarni uzlaksiz mustaqil egallab borishi;

– o'qituvchining shaxsiy sifatlari (mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak madaniyatllilik, epchillik, hozirjavoblik, vazminlik, ma'suliyatlilik, sinchkovlik, qat'iyatlilik, batartiblik, sabotlilik, tirishqoqlik, ijrochilik, vijdonlilik, xolislik, har tomonlama biliqdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomalalik, talabalarni sevish va ular shaxsini hurmat qilish va boshqalar).

2. Rivojlantiruvchilik:

– o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning o'quv imkoniyatlarini bilishi;

– o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'ota olishi;

– ta'larning turli usullari (bayoni-yasviri, reproduktiv, muammoli ta'lif, qisman-izlanuvchan yoki evristik usul, tadqiqot uslubi)ni egallaganligi.

3. Yo'naltiruvchilik:

– o'qitish tamoyillari tizimi (tarbiya va o'qitish jarayonida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ilmiylik va bilimlarning talabalar imkoniyatiga yarasha qiyinlik darajasi, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ongliligi va ijodiy faolligi, o'qitishda ko'rsatmalilik va talabalarning nazariy tafakkurini rivojlantirish, tizimlilik va izchillik, o'qitishdan bilimlarni mustaqil egallashga o'tishni ta'minlash, o'qitish natijalarining puxtaligi va talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qitishda ijobjiy hissiyot yaratish, o'qitishning jamoa tusidaligi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish)ni o'zlashtirganligi.

4. Safarbarlik:

– darsda o'quvchilarning diqqatini barqarorlashtirishi;

– har xil tipdagи darslar (yangi bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni egallash, va ularni qo'llash, bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish va tuzatish, aralash dars)ni o'tkaza olishi;

– ta'limga oid va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshira olishi;

– egallangan bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirishi;

– hazil-mutoyibani uddalay olishi;

– pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil qila olishi va unga qo'yiladigan estetik va gigiyenik talablarga rioxha qila olishi.

5. Loyihachilik:

– o'z mutaxassisligiga oid ta'lif muassasasi kursini puxta bilishi;

– o'z fanining metodikasini bilishi;

– o'qitish va talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish uchun o'quv manbalarini tanlay olishi;

– o'qitishda predmetlararo, ichki va tashqi aloqalardan foydalanish malakasi;

– kerakli hujjatlarni to'g'ri olib borishi va rasmiylashtirishi;

– asosiy tarbiyaviy ishlarning turlarini aniqlash va uni o'tkazish shakllarini tanlashi;

6. Vositachilik:

- guruh jamoasini boshqara bilishi;
- o'qitishni tashkil qilish shakllari (frontal, individual, guruh)ni egallagan bo'lishi;
- o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlay olishi;
- muloqot jarayonida axloqiy normalarga rioya qilishi;
- lektor-targ'ibotchi malakasini egallagan bo'lishi.

7. Tashkilotchilik:

- darsni tashkil qila olishi;
- guruh rahbari ishini rejalashtirishi;

— guruhdan va darsdan tashqari ishlarni, o'z faniga oid ommaviy tadbirlarni tashkil qilishi va ularni mohirona o'tkazishi.

8. Tadqiqotchilik:

- dars, shuningdek o'quv-tarbiya tadbirlarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- ta'lif-tarbiyaga oid uncha murakkab bo'lmagan pedagogik tajribalarni o'tkazishi va ishlab chiqishi;
- boshqa o'qituvchilarining tajribalarini tahlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanishi;
- ilmiy va pedagogik ijodga qiziqishi;
- mulohaza yuritganda fikrlashning dialektik uslubini qo'llashi.

Ko'rib o'tganimizdek pedagogik faoliyat muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa. Uni aniq tashkil qilish, talaba-yoshlar bilim olish jarayonini, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, motivlari, maqsadlari, amalga oshirish shakllarini to'g'ri yo'naltirish pedagogik mahoratning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat singari, pedagogik faoliyat ham maxsus tayyorgarlik (ma'lumotlilik), tajriba, ixtisoslik bo'yicha bilimga ega bo'lishini talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda kasbiy pozitsiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Pedagogik pozitsiya – pedagogik tafakkur mahsuli, tarbiya jarayonini his etish va tarbiya jarayoniga tayyorgarlik darajasidir. Bu shunday holatki, o'qituvchining bolalarga nisbatan egallagan dastlabki pozitsiyasi uning keyingi faoliyati yo'lini belgilab beradi. Chunki shu pozitsiya orqali turli vaziyatlar o'quvchiga o'z hukmini o'tkaza boshlaydi. Agar o'qituvchi bolani "sindirish", "yengish" yoki "buysundirish"ga intilsa, bolaning kichik xatosi ham uni g'azablantiradi va natijada bolaga qichqirish, qattiq tanbeh berish, yomon baho qo'yish va uni kamsitish kabi holatlar ro'y beradi. Agar o'qituvchi sinfga "ishlash", "tarbiyani anglash", "muayyan muloqotga kirishish", "maqsadga erishish" uchun borsa, u o'quvchilarning bosh maqsadga tomon umumiy harakatiga xalaqit bermagan holda undagi ayrim kamchiliklarni yo'l-yo'lakay bildirmasdan hal etib boradi. Pedagogik pozitsiyadagi farqlarni turli o'qituvchilar faoliyatidagi farqlarga qarab yengil ajratish mumkindir. O'qituvchilar mahoratining turlichaligi pozitsiyalardagi rang-baranglikni oshiradi.

Hozirgi zamon pedagoglarning pedagogik pozitsiyasi ulardagagi pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish darjasini bilan bevosita bog'liqdir.

O'z kasbiga munosabatlар nuqtai-nazarlarini ko'rib chiqish davomida unga xos quyidagi tavsiflarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi pozitsiya bu – "masofali pozitsiya" bo'lib, u tarbiya subyektlari hamkorligidagi ruhiy masofani anglatadi. Bu yerda uchta "uzoq", "yaqin" va "yonida" kabi asosiy belgilarni ajratish mumkin bo'ladi. "Uzoq" masofa munosabatlarda samimiylig yo'qligi va o'qituvchi o'z ishini "qog'oz uchun" nomigagina bajarayotganligini bildiradi. "Yaqin" masofani tanlagan pedagog o'quvchilarning do'sti bo'lib, ular bilan o'z ijodiy qarashlarini amalga oshiradi.

Ikkinci pozitsiya – "darajali pozitsiya" – pedagoller va o'quvchilarning aloqalari, hamkorligi va bir-biriga to'g'ri kelishidan kelib chiquvchi "vertikal yo'nalishdagi": "sust", "ustivor" va "teng" kabi iyerarxik munosabatlari tizimidir. "Ustivor" pozitsiya uchun "o'quvchi yosh, tajribasiz va no'noq" qarashlari orqali bo'ladi avtoritar buyruqbozlik bosimi xosdir. "Sust" pozitsiya uchun esa bolalik yoshi tabiatli oldida tiz cho'kish, bola tarbiyasi rivojiga qo'shilishdan hayiqish xos bo'lib, unda o'qituvchi bolaning injiqqliklariga xizmat qiluvchi bir passiv shaxsga aylanib qoladi. Keyingi "teng" pozitsiyada o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchisini o'ziga teng ko'radi va bu albatta, o'zaro hurmatga asoslangan bo'ladi. Faqat ayrim hollardagina o'qituvchi bola injiqqliklarini o'z irodasiga buysundirish uchungina "ustivor" pozitsiyaga o'tishi mumkin.

Uchinchi pozitsiya – "kinetik pozitsiya" ("kinetika" – harakat) bo'lib, o'zaro hamkorlik faoliyatida boshqa kishiga nisbatan harakat holatini anglatadi va "oldinda", "orgada", "birgalikda"

PEDAGOGIKA

kabi vaziyatlarda bo'ladi. "Oldinda" pozitsiyasi pedagogning boshlovchilik faoliyatini anglatadi va bunda o'qituvchi o'quvchilarni o'z orqasidan ergashtirib bora oladi. "Orqada" pozitsiyasi o'qituvchining "cho'ponchilik uslubi"dan dalolat beradi, ya'ni u o'quvchilarni oldinga solib haydash orqali boshqaradi. "Birgalikda" pozitsiyasida o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda o'zlarining umumiy harakat yo'llarini belgilab oladilar. Qisqasi faoliyatning bosh yo'nalishida "oldinda", mayda-chuydalarda "orqada" va umumiy harakatda "birgalikda" pozitsiyalari amal qiladi.

Shunday qilib o'z kasbi ahamiyatiga munosabat nuqtai nazaridan kelib chiqib "faoliyat mezonlarida" yonida, teng va birgalikda, lekin ozgina oldinda kabi holatlarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi-tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisidan iborat bo'ladi va o'zining shakllanishi jarayonida bir necha yo'lini bosib o'tadi:

- birinchi yo'l – o'quv-pedagogik faoliyat yo'li bo'lib, u fanlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishni nazarda tutadi.

- ikkinchi yo'l – shaxsiy faoliyat yo'li bo'lib, u o'ziga, o'z ishiga, hamkasblariga, o'quvchilarga, ularning ota-onalariga bo'lgan munosabatini bildirib, o'z mavqeini tushunishi, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini anglash, mustaqil ravishda bilimini oshirishga intilish, o'zini-o'zi kamolotga yetkazish, bunyodkorlikka, ijodkorlikka, tadbirkorlikka layoqatini yangilikka muntazam intilishini anglatadi.

- uchinchi yo'l – ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo'li bo'lib, u o'qituvchi-tarbiyachining o'quvchilarni, jamoani "ko'ra bilishini", o'quvchi yoshlarning qiziqishi va talablarini, ular duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan anglay olishini; har bir o'quvchi-tarbiyalanuvchining individual-psixologik xususiyatlarini ilg'ay olishini; darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarning shakllanganligini; turli ijtimoiy-foydali ishlarga o'quvchilarni jalb eta olishini; fanga, hayotga, san'atga, ijtimoiy-foydali mehnatga havas uyg'ota olish kabi qobiliyati qirralarining mavjudligini anglatadi;

- to'rtinchi yo'l – axborot-kommunikativ faoliyat yo'li bo'lib, u o'qituvchining ma'lumot-axborotga ega ekanligini; voqelik, pedagogik olamdag'i voqe'a-hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qurollanganligini; axborot va kommunikativ texnologiyalardan ma'lumotlar ola bilishini, uni o'z tafakkur elagidan o'tkazib, hamkasblari, o'rtoqlari, o'quvchilariga yetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Yuqorida tahlillar asosida yana shuni alohida ta'kilash lozimki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishsiz imkonsiz jarayon bo'lib qoladi. Pedagogika sohasida kasbiy kompetentlik tarkibi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, turli rakursdagi qarashlarda tadqiqotchilar pedagogik faoliyatning u yoki bu tarkibiy qismiga urg'u berishadi. Tahlillar asosidagi kasbiy kompetentlikning yaxlit holatdagi tarkibiy qismlari: kognitiv, kasbiy-texnologik, axborot, kommunikativ, metodik va boshqalarlan iborat.

XULOSA

Kasbiy kompetentlik bo'lajak o'qituvchining alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislikka oid bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Demak, kasbiy kompetentlik integral xususiyatga egadir. U pedagogik faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar va kasbiy topshiriqlarni hal eta olish qobiliyati va tayyorlik darajasi bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва.: «Академия», 2013. –С. 38.
2. Казакова Н.Е, Валеева И.А. Теоретические основы исследования полипрофессионализма учителя сельской школы -Образование: исследовано в мире//Международный педагогический интернет журнал, 2004. – Эл.текст:www.oim.ru/reader.asp?nomer=446.
3. Леонтьев, А.А. Педагогическое общение / А.А. Леонтьев. — М.: МГУ, 1979.-112 с.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. Москва, 1996.
5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фун док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.

6. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.
7. Хайдаров Ф.И. Муслимов Н. Педагогик кадрлар тайёrlаш истиқболи. Педагогик таълим. Тошкент.: 6-сон 2009. –Б. 8-9.
8. Холиков А. Педагогик маҳорат. Тошкент.: Иқтисод-молия. 2010. –Б.24.